

**LINGUISTIC PROBLEMS AND TRANSLATION METHODS IN TRANSLATING ARABIC ECONOMIC TERMS INTO UZBEK****Zamira Z. Tojiyeva***Teacher**Department of Arabic Language Translation Theory and Practice
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan***Usmonjon K. Ermatov***Senior teacher**Department of Arabic Language Translation Theory and Practice
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: economic terms, lexical-semantic mismatch, digital economy, transliteration, calque (loan translation), equivalence in translation, nominal and verbal constructions.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: The expansion of global economic relations and international cooperation has increased the importance of exchanging economic information between different languages. In this process, the accurate and precise translation of economic terminology plays a crucial role. Translating economic texts from Arabic into Uzbek presents specific linguistic, cultural, and terminological challenges. This scientific article is devoted to analyzing the main linguistic difficulties that arise in the process of translating economic terms from Arabic into Uzbek and proposing strategies to overcome them. The main objective of the research is to study the influence of typological differences between the two languages, the specific features of their terminological systems, and their cultural contexts on the translation process. The article also examines semantic inconsistencies, issues of equivalence, and translation methods in detail, which serve to provide practical recommendations for translators and linguists.

ARAB TILIDAGI IQTISODIY ATAMALARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI LINGVISTIK MUAMMOLAR VA TARJIMA USULLARI

Zamira Z. Tojiyeva

O'qituvchi

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Usmonjon K. Ermatov

Katta o'qituvchi

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: iqtisodiy terminlar, leksik-semantik, nomuvofiqlik, raqamli iqtisodiyot, transliteratsiya, kalkalash, tarjimada ekvivalentlik, nominal va verbal konstruksiyalar.

Annotatsiya: Global iqtisodiy aloqalar va xalqaro hamkorlikning kengayishi turli tillar o'rtasida iqtisodiy axborot almashinuvining ahamiyatini oshirmoqda. Bu jarayonda iqtisodiy terminologiyaning aniq va to'g'ri tarjimasini muhim rol o'ynaydi. Arab tilidagi iqtisodiy matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish o'ziga xos lingvistik, madaniy va terminologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu ilmiy maqola arab tilidagi iqtisodiy terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy lingvistik qiyinchiliklarni tahlil qilishga va ularni bartaraf etish strategiyalarini taklif qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ikki tilning tipologik farqlari, terminologik tizimlarining o'ziga xosliklari va madaniy kontekstlarining tarjima jarayoniga ta'sirini o'rganishdan iborat. Maqolada semantik nomuvofiqliklar, ekvivalentlik masalalari va tarjima usullari atroflicha ko'rib chiqiladi, bu esa tarjimonlar va lingvistlar uchun amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ С АРАБСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

Замира З. Тожијева

Преподаватель

Кафедра теории и практики перевода арабского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

Усмонжон К. Эрматов

Старший преподаватель

Кафедра теории и практики перевода арабского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономические термины, лексико-семантическое несоответствие, цифровая экономика, транслитерация, калькирование, эквивалентность в переводе, номинальные и глагольные конструкции.

Аннотация: Расширение глобальных экономических связей и международного сотрудничества повышает значимость обмена экономической информацией между различными языками. В этом процессе важную роль играет точный и корректный перевод экономической терминологии. Перевод экономических текстов с арабского языка на узбекский вызывает ряд специфических лингвистических, культурных и терминологических трудностей. Данная научная статья посвящена анализу основных лингвистических проблем, возникающих в процессе перевода экономических терминов с арабского языка на узбекский, а также разработке стратегий их преодоления. Основной целью исследования является изучение влияния типологических различий двух языков, особенностей их терминологических систем и культурного контекста на процесс перевода. В статье подробно рассматриваются вопросы семантических несоответствий, эквивалентности и методов перевода, что позволяет предложить практические рекомендации для переводчиков и лингвистов.

Kirish. Arab tilidagi iqtisodiy terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri leksik-semantik nomuvofiqliklardir. Bu nomuvofiqliklar bir necha omillar bilan bog‘liq. Zamonaviy iqtisodiyotda, ayniqsa raqamli iqtisodiyot yangi sohalarda paydo bo‘lgan ko‘plab tushunchalar uchun o‘zbek tilida hali to‘liq shakllangan yoki keng qo‘llaniladigan ekvivalent atamalar mavjud emas. Bunday hollarda tarjimonlar tavsifiy tarjima, kalka yoki transliteratsiya usullaridan foydalanishga majbur bo‘ladilar, bu esa ba‘zan ma’no noaniqliklariga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot usullari. Bugungi kunda tarjima sohasi jamiyatdagi eng aktual sohalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu bilan birga muhimligi yuqori bo‘lgan bu sohasada tarjimonlarning vazifalarini bajarishda yordam beradigan, balki tarjimonlarning o‘rnini ham egallayotgan texnik va texnologiya vositalari kuchli rivojlanib borayotganligi barchaga ayon (Tojiyeva, 2025, p.176). Arab iqtisodiy diskursida metaforik ifodalar keng qo‘llaniladi. Masalan, غسل / تبيض atamasi “pullarni yuvish/oqartirish” iqtisodiy atamasi. Bunday metaforalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ularning asl ma’nosini saqlagan holda, professional va ilmiy uslubga mos keladigan ekvivalentni

topish muhimdir. Ba'zan metaforani to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish kulgili yoki tushunarsiz bo'lishi mumkin, shuning uchun tarjimon sohaviy bilimlar va jarayonlar bilan ham tanish bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek lingvistik moslashuvni hisobga olishi kerak

الجزئى / الـاقتصادى - *mikroiqtisodiyot* atamasini misol keltirish mumkin. Bunda جزء so'zi “ *qism* ”, “ *bo'lak* ” degan ma'noni anglatadi. So'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak *qismli iqtisodiyot* degan ma'no chiqmoqda, ammo asl ma'no “ *mikroiqtisodiyot* ” deganidir. Bu kabi iqtisodiy atamalardan bir necha misol quyida keltiramiz.

الـاقتصاد الكلى / التجميـعـى - “ makro iqtisodiyot ” – (so'zma-so'z tarjimada jamlovchi iqtisodiyot degan ma'noni bildiradi).

Masalan: الـاقتصاد: -التحتى “ *Yashirin iqtisodiyot* ”, “ *Qora bozor* ” – (*ostki qismi* degan tarjimaga ega).

Ba'zi bir o'rinlarda atamalarning tarjima qilishda o'sha sohadagi yangiliklar bilan tanishish, sohadagi eng so'nggi ixtirolar, natijalar haqida ma'lumotlar bilan tanish bo'lishi kerak.

Masalan: الـاموال هلىكوبتر - ingliz tilida -“ *Helicopter money* ” iborasi mavjud bo'lib so'zma-so'z tarjima qilinganda “ *Vertolyot puli* ” degan ma'noni beradi. Bu holatda iboraning kelib chiqish tarixi haqida sharh berilishi lozim. “ *Vertolyot pullari* ” (inglizcha *Helicopter money*) — bu makroiqtisodiyotdagi tushuncha bo'lib, davlat yoki markaziy bank tomonidan aholiga to'g'ridan-to'g'ri pul tarqatish g'oyasini anglatadi. Avval bu faqat fikriy tajriba (nazariy misol) bo'lgan, keyinchalik esa iqtisodiy siyosatni tasvirlash uchun ham ishlatila boshlandi.

Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tartibi: Arab tili asosan fe'l-ega-to'ldiruvchi yoki ega-fe'l-to'ldiruvchi so'z tartibiga ega gap qurilish shakliga ega bo'lsa, o'zbek tilida esa ega-to'ldiruvchi-fe'l shaklidagi gap qurilish tartibiga amal qiladi. Bu farq murakkab iqtisodiy jummalarni tarjima qilishda jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Tarjimon arabcha jumlaning o'zbek tilining sintaktik qoidalariga mos ravishda qayta qurishi, ba'zan esa jummalarni qismlarga ajratishi yoki birlashtirishi lozim bo'ladi

Nominal va verbal konstruksiyalar: Arab tilida rasmiy va ilmiy uslubda nominal (ot kesimli) jumlar keng qo'llaniladi, bu esa matnga ixchamlik va rasmiylik baxsh etadi. O'zbek tilida esa ko'pincha verbal (fe'l kesimli) konstruksiyalar afzal ko'riladi. Arab tilidagi nominal jummalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ularni fe'l kesimli jummalarga aylantirish matnning tabiiy jaranglashini ta'minlaydi, ammo bu jarayon ma'no nozikliklarini yo'qotish xavfini ham tug'dirishi mumkin

Natijalar. To'g'ridan-to'g'ri tarjima (Direct Translation): Agar arab tilidagi atamaning o'zbek tilida to'liq ekvivalenti mavjud bo'lsa, bu usul eng samarali hisoblanadi. Masalan, “ *بنك* ” “ *bank* ” (bank), “ *دين* ” (qarz). Bu usul terminologik aniqlikni ta'minlaydi va tushunishni osonlashtiradi.

Fond bozori: An'anaviy "suq" bugungi kunda "fond bozori" – "سوق الأسهم" yoki "forex bozori" – "سوق العملات" kabi yangi iqtisodiy tushunchalar bilan kengaytirildi.

Tijorat – "تجارة". Katta hajmdagi savdo faoliyati. Bu so'z zamonaviy biznesni, savdo ya'ni oldi-sotdi qilish jarayonlarini ma'nosini ifodalaydi. "Ayni paytda xalqaro savdoda O'zbekiston o'z rolini oshirib bormoqda" –

"في الوقت الحالي تعزز أوزبكستان دورها في التجارة الدولية"

Transliteratsiya va Transkripsiya: Yangi yoki xalqaro atamalar uchun, ayniqsa, o'zbek tilida muqobili bo'lmagan hollarda, atamani arab tilidan o'zbek tiliga tovushini saqlagan holda o'tkazish. Masalan, "فيروس كورونا" "korona virus" kabi birikmalar ko'pincha transliteratsiya qilinadi.

Al-Urbun (العربون) – Kafolat to'lovi. Ma'nosi: Savdo kelishuvida avans yoki kafolat sifatida berilgan to'lov. Bugungi kunda bu tushuncha ko'chmas mulk yoki avtomobil savdosida dastlabki to'lov sifatida ishlatiladi.

Quyidagi harf va biriklar transliteratsiya uchun arab tilida mavjud bo'lmagan harflarni shuningdek, chet tilidan kirgan so'zlarning tarkibidagi qo'shimchalarni ifodalashda qo'llaniladi.

P → ب (portfolio → بورتفوليو)

V → ف / ث (investment → إنفستمنت / إنفستمنت; ayrim hududlarda ث ishlatiladi)

G → ج / غ (global → جلوبال / غلوبال)

Ch → تش benchmark → بنچمارك

Tion → شن digitalization → ديجيتاليزيشن (kam) / رقمنة

Ing → ينغ leasing → ليزينغ

er → ير / ر broker → بروكر

X → كس tax → تاكس

C/K ko'pincha ك (crypto → كريبتو, market → ماركت)

Kalkalash. Arab tilidagi atamaning tarkibiy qismlarini o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish. Masalan, "سوق الأوراق المالية" (qimmatli qog'ozlar bozori) kabi. Bu usul atamaning ichki tuzilishini saqlab qolishga imkon beradi. Inflation – التضخم, pul o'tkazish (transfer) – تحويل, moliyalashtirish – تمويل, mikromoliyalashtirish – التمويل الأصغر, bank ilovasi – تطبيق مصرفي, tanlov – خيار, indeks – مؤشر, YIM (mamlakat hududida ma'lum bir davr (odatda bir yil) davomida ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning umumiy bozor qiymatini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich) – الناتج المحلي الإجمالي

Ba'zan madaniy va diniy atamalar ham tarjima jarayonida bu atamalarni boshqa tilining madaniy kontekstiga moslashtirish talab etiladi. Bu usul, ayniqsa, metaforik ifodalarni tarjima qilishda muhimdir. Tarjimon matnning maqsadli auditoriyasini hisobga olgan holda eng mos variantni tanlashi kerak. Masalan: Zakot – "زكاة" Boylikni poklash. Ma'nosi: Tashkilot yoki shaxs

tomonidan belgilangan miqdordagi boylarning kambag'allarga berilishi. Zakot iqtisodiy tenglikni ta'minlash va savdo tizimini barqarorlashtirishning muhim qismidir. An'anaviy arab savdo terminlari savdo-sotiq va moliyaviy muomalalarning faqat texnik emas, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu terminlar Islom iqtisodiy tamoyillarini belgilashda va adolatli iqtisodiy tizimni qurishda muhim rol o'ynaydi.

بيت المال – so'zma- so'z tarjimasi “ Molning uyi”. Kontekstual tarjima esa “Davlat moliya idorasi yoki xazinasi”. Bugungi kunda zamonaviy arab mamlakatlarining g'aznachilik tizimlari va markaziy banklari “ بيت المال ”ning davomidir.

Terminologik lug'atlardan foydalanish: Iqtisodiy terminologiyani tarjima qilishda ikki tilli va ko'p tilli iqtisodiy lug'atlar, glosariylar va terminologik bazalardan faol foydalanish zarur. Bu tarjima sifatini oshirishga va terminologik nomuvofiqliklarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek har qanday iqtisodiy atamani tarjima qilishdan oldin uning matndagi kontekstini chuqur tahlil qilish muhimdir. Bir atama turli kontekstlarda turli ma'nolarni anglatishi mumkin, shuning uchun kontekstga mos ekvivalentni tanlash va kontekstual tahlil qilish tarjima aniqligini ta'minlaydi.

Xulosa. Arab tilidagi iqtisodiy terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish murakkab jarayon bo'lib, u leksik-semantik, strukturaviy va madaniy xususiyatlar bilan bog'liq bir qator muammolarni o'z ichiga oladi. To'g'ridan-to'g'ri ekvivalentlarning yo'qligi, arab tilidagi atamalarning ko'p ma'noliligi, metaforik ifodalar va madaniy-diniy kontekst tarjimonlardan chuqur lingvistik bilim va kontekstual tahlil qobiliyatini talab qiladi. Shuningdek, ikki til o'rtasidagi so'z tartibi va jumlarlar tuzilishidagi tipologik farqlar ham tarjima jarayonida jiddiy o'zgarishlarni talab etadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun to'g'ridan-to'g'ri tarjima, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, kalka va adaptatsiya kabi turli strategiyalardan foydalanish muhimdir. Terminologik lug'atlar va kontekstual tahlilga tayanish tarjima sifatini oshirishga yordam beradi. Mazkur tadqiqot arab tilidagi iqtisodiy terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish nazariyasi va amaliyotiga hissa qo'shib, tarjimonlar va lingvistlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ikki madaniyat o'rtasidagi iqtisodiy muloqotni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ali Y. K. (2021). Economic terminology and its difficulty of translation. *Al-Adab Journal*, (137) Pages: 1-15 (in English)
2. Chidiac R. S., Redford, M. S., & Ajaka, L. N. (2024). Anonymous-Economic Translation from English into Arabic: Difficulties and Challenges for Future Translators. *Educational Administration: Theory and Practice*, 30(1), 7582-7594. (in English)

3. Elmgrab, R.A. (2016). The Creation of Terminology in Arabic. American International Journal of Contemporary Research, 6(2), 10-18. (in English)

4. Tojiev Z.Z., Najimova. O.B. (2025) "Translation of Phraseological Units in Arabic and Uzbek: Problems, Methods, and Cultural Differences." Arab va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning Tarjimasi: muammolar, usullar va madaniy tafovutlar. World Scientific – Methodical Journal of Research <https://scientific-jl.com> pages 137-141 (in Uzbek)

5. Tojiev Z.Z. (2025) Features of translating realia from the Arabic language into the Uzbek language. Arab tilidan o'zbek tiliga realiyalarni tarjima qilish xususiyatlari. The Lingua Spectrum Pages: 373-381 (in Uzbek)

6. Tojiev Z.Z., Ermatov U.K., (2024) Challenges of Arabic -English Translation. Pubmedia Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris Vol: 1, No 3, 2024, Page:1-9 DOI: <https://doi.org/10.47134/jpbi.v1i3.616> (in English)

7. Tojiev Z.Z., Omonullayeva R.A. (2025) Artificial Intelligence and Types of Machine Translation: Comparative Analysis. Sun'iy intellekt va mashina tarjimasining turlari ularning qiyosiy tahlili. The Journal "Bulletin of the Khorezm Mamun Academy" – No. 6/5, 2025 pages 175-178 (in Uzbek)

Tojiev. Z.Z., (2025) Challenges of Distance Learning in Teaching Arabic Ways to Solve Them. Arab tilini o'qitishda masofaviy ta'lim muammolari. Ularni hal qilish yo'llari. Oriental Journal of Philology Pages: 591-598. DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-68> (in Uzbek)